

**ISHLAB CHIQARISH TARMOQLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA
INVESTITSIYALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY VA IQTISODIY
ASOSLARI**

Shoxo'jaeva Zebo Safoevna

i.f.n. dotsent, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va
tadqiqotlar xalqaro markazi doktoranti

Boqieva Dildora Olimovna

QarMII 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ma'lumki, mamlakatimiz iqtisodiyotida ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash, xalqaro bozorda o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lishi uchun raqobatbardosh va sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun investitsiyalar jalb qilish, ulardan samarali foydalanish lozim. Ushbu maqolada investitsiyalardan foydalanishning nazariy va iqtisodiy asoslariga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion jarayon, asosiy kapital, aylanma katital, moliyaviy, moddiy, aqliy boyliklar, chet el kredit liniyalari, investitsiya siyosati.

Bugungi kunda investitsiya va investitsion jarayonga turli olim va amaliyotchilar har xil nuqtai nazardan qaraydilar. Ayrim olimlar investitsiyani hali ham «kapital qo'yilmalar», «kapital qurilish» kategoriylariga tenglashtirib keladilar. Aslini olganda, investitsiya hajmi jihatidan ham, rang — barangligi jihatidan ham hozir aytilgan kategoriyalardan ustun turadi. Bozor munosabatlari sharoitida «kapital qo'yilmalar», «kapital qurilish» kategoriylari investitsiyalarning tarkibiy qismidir. Investitsiyaning iqtisodiy ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladigan bo'lsa, bu o'rinda «investitsiya» tushunchasining moliyaviy, mulkiy va intellektual (aqliy) qadriyatlarni takror ishlab chiqarishning in'ikosi bo'lmish dastlabki va asosiy tushuncha bo'lib maydonga chiqishini unutmaslik kerak. Ko'pgina iqtisodiyotchi olimlar va

amaliyotchilarning asarlarida investitsiya va u bilan bog’liq bo’lgan boshqa muammolar to’g’risida fikrlar bor. Masalan, professor Ye. V.Mixaylovaning fikricha, «investitsiya bu — sub’ekt ixtiyoridagi barcha moliyaviy, moddiy va boshqa boyliklarni kelajakda iqtisodiy samara olish uchun biror ob’ektga sarflashdir». Bu o’rinda investitsyaning mohiyati bilan mazmunini bozor iqtisodiyotiga moslashtirib ochib berishga harakat qilingan.

Olimlarning investitsiyalar to’g’risidagi fikrlarini, investitsiyalar xususida qonunlarimizda keltirilgan ko’rsatmalarni umumlashtirib, investitsiyaga quyidagicha ta’rif beriladi: «investitsiya deb har bir investorning ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va aqliy boyliklarini birlamchi iqtisodiy samara olish maqsadida biror bir investitsion ob’ektga sarflashiga aytildi».

Investitsiyalarning iqtisodiy mazmunining ko’p qirraliligi unga berilgan ta’riflarning o’zida ham namoyon bo’ladi. Jumladan, Sh.Shodmonov, R.Alimov va T.Jo’raevlar: «Investitsiyalar - asosiy va aylanma kapitalni ko’paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga pul shaklidagi qo’yilmadir. U pul mablag’lari, bank kreditlari, aktsiya va boshqa qimmatli qog’ozlar ko’rinishida amalga oshiriladi. Pul mablag’lari ko’rinishidagi investitsiya nominal investitsiya, ana shu pul mablag’lariga sotib olish mumkin bo’lgan investitsion resurslar real investitsiya deyiladi», deb ta’kidlaydilar⁶³.

D.Tojiboeva investitsiyalarni quyidagicha ta’riflaydi: «Investitsiya deganda kelajakdagi natija uchun: ishlab chiqarishni kengaytirish yoki rekonstruktsiya qilish, mahsulot va xizmatlarni sifatini yaxshilash, malakali mutaxassislar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishga mo’ljallangan moliyaviy resurslar tushuniladi»⁶⁴. Bundan ko’rinadiki, muallif mazkur ta’rifda investitsion faoliyat yo’nalishlariga urg’u berib o’tadi.

B.Tursunov tomonidan «Investitsiyalar - bu sanoat, qishloq xo’jaligi, transport, qurilish va xo’jalikning boshqa tarmoqlariga uzoq muddatli qo’yilma shaklida amalga

⁶³ Шодмонов Ш.Ш., Алимов Р.Х., Жўраев Т.Т. "Иқтисодиёт назарияси", -Т., "Молия" нашриёти, 2002, 277-6.

⁶⁴ Тожибоева Д. "Иқтисодиёт назарияси": 2-китоб: Олий ўкув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. -Т. "Шарқ", 2003, 79-6.

oshiriluvchi sarf-xarajatlarning yig’indisidir»⁶⁵ deb, investitsiya mablag’lari kiritiluvchi sohalar tarmoq nuqtai-nazaridan alohida ta’kidlab o’tiladi.

Shuningdek, ba’zi manbalarda «Investitsiyalar - xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakat ichida va uning chegarasidan tashqarida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va qimmatli qog’ozlarga kapitalning uzoq muddatli qo’yilmasi»⁶⁶ sifatida qaralib, oldingi ta’riflardan farqli o’laroq, portfelli (ya’ni, qimmatli qog’ozlarga joylashtirilgan) investitsiyalar ham ko’rsatib o’tiladi.

Ba’zi manbalarda investitsiyalarni amalga oshirishning asosiy maqsadini ohib berishga harakat qilingan ta’riflar ham uchraydi. Jumladan, «Investitsiyalar (lot. «Gpuyezyge» kiyintirmoq; ingl. shuyezgtesh.) - qo’shimcha foyda olish yoki obro’-e’tiborga ega bo’lish maqsadida, yoki mablag’larni bunday tarzda qo’yish bu sohada o’z operatsiyalarini olib borishga qaraganda ancha foydaliligi sababli kapitalni qandaydir huquqiy jihatdan mustaqil bo’lgan korxonalarga uzoq (bir yildan kam bo’lmagan) muddatga joylashtirish»⁶⁷ deb qaralishi bunga yaqqol misoldir.

Investitsiya faoliyatini tartibga solish, huquqiy nuqtai nazaridan, turli mulkdorlar o’rtasida moddiy va nomoddiy aktivlarni takror ishlab chiqarish xususidagi o’ziga xos, murakkab, ijtimoiy zarur iqtisodiy (investitsiya) munosabatlarini shakllantirish me’yorlarini nazarda tutadi. Investitsiya jarayonining barcha sub’ektlari – chet ellik investorlardan boshlab, davlat, yuridik va jismoniy, shu jumladan chet ellik shaxslar (rezidentlar va norezidentlar) gacha bu munosabatlarning ishtirokchilariga aylanadilar. Huquq nuqtai nazardan chet el investitsiyalari boshqa davlat hududida kapitalga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish bilan bog’liq. Iqtisodiy nuqtai nazardan esa ularning hududiy, zamon va makondagi harakati shakllari foyda olish maqsadida ko’pdan-ko’p qo’shimcha risklar bilan to’qnashish ehtimoliga ega bo’ladi.

⁶⁵ Турсунов Б.М. Внешнеэкономическая деятельность и привлечение иностранных инвестиций. Курс лекций. - Т.: "Узбекистан", 2004. с.45.

⁶⁶ Экономическая теория: Учебник. — Изд., испр. и доп. / Под. общ.- ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрьшина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. - М.ИНФРА-М, 2005, с. 422.

⁶⁷ Иностранные инвестиции. В кн.: Л.Н.Павлова. Финансы предприятий. -М., 2004. -с. 171.

Jahon tajribasidan ma'lumki, investitsiyalar iqtisodiyotga turlicha shaklda, ya'ni tadbirkorlikning bevosita investitsiyasi shaklida yoki kredit, moliyaviy investitsiya shakllarida qo'yilishi mumkin. Respublikamiz iqtisodiyotiga jalb qilingan investitsiyalarning aksariyat qismini hukumat kafolati asosida kiritilgan chet el kredit liniyalari tashkil etadi. Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga bevosita ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan, erkin, xususiy xorij kapita»lini jalb etish samaralirokdir.

London Siti Lord meri Alderman Gevin Arturning fikricha, avvalam bor investorlar uchun ochiq ishchan muhitning mavjudligi, xorijiy investorlar bilan ham aynan mahalliy investorlar va tadbirkorlar bilan bo'lgan munosabat o'rnatilishi, ikkinchidan, investorlar minimal byurokratik va shartnomalarga hurmat bo'lgan sharoitlarda faoliyat yuritishi, ikki tomon ham shartnomaning shartlarini o'z vaqtida bajarishi, soliqqa tortish tizimining shaffofligi, ya'ni sodda, tushunarli bo'lishi, investitsiyalashni boshlagan davrdagi shart — sharoitlarning o'zgarmasligi kabi muhitning yaratilishi chet el investitsiyalarini jalb etishni tezlatadi.

Shunday ekan, investitsiyalash jarayonida investorlarning faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar va shart — sharoitlarning o'zgarmasligi o'ta muhimdir.

Investitsiya - bu nafaqat moliya resurslari, shuningdek yangi texnika, zamonaviy chet el texnologiyasi, bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruvning yangicha usullari hamdir. Investitsiyalarni jalb etishda xorijiy investorlarga ularning mamlakatda erkin faoliyat yuritishlari uchun qulay investitsiya oqimini yaratib berish zarurligini ham hisobga olish lozim. Bu mas'uliyatni avvalo davlat o'z zimmasiga olishi kerak.

O'zbekiston iqtisodiy ravnaqini hisobga olgan holda mamlakatda samarali investitsion siyosatni amalga oshirish hamda samarali ravishda chet el kapitalini qabul qilish tizimini ishlab chiqish zarur.

Investitsiya iqlimi - bu keng ma'noli tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma'lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va nokulay tomonlari baholanadi,

shu bilan birga o’z sarmoyasini kiritmoqchi bo’lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi.

Ma’lumki, mamlakatimiz iqtisodiyotida ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiyalar bilan ta’minlash, xalqaro bozorda o’z o’rni va mavqeiga ega bo’lishi uchun raqobatbardosh va sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun investitsiyalar jalb qilish, ulardan samarali foydalanish lozim. Shu o’rinda O’zbekistonni bugungi kundagi xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarini kengaytirish va mustahkamlash, tovarlar, ishlari va xizmatlar eksportini qo’llab-quvvatlash borasidagi faoliyati juda keng miqyoslidir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Investitsiya iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi – drayveridir”.

O’zbekistonning Janubiy Osiyo, Yaqin va O’rta Sharq mamlakatlari bilan investitsiyaviy hamkorligi hozirgi vaqtida qiymati qariyb 1,9 milliard dollar bo’lgan 60 dan ortiq loyihani qamrab oladi. Bevosita Koreya investitsiyalari va ilg’or texnologiyalarini, imtiyozli kreditlarini faol jalb qilish hamda sanoat, energetika, infratuzilma, avtomobilsozlik, fan va innovatsiyalar, sog’liqni saqlash va turizmni rivojlantirish sohalarida yuqori texnologik loyihalarni amalga oshirish uchun moliya-texnik yordam ko’rsatilishi mamlakatimiz manfaatlariga javob beradi. O’zbekistonning Koreya Respublikasiga 2019 yilda eksport tuzilmasi 93 million dollar bo’lsa, prognoz ko’rsatkichlari asosida 2025 yilga borib, 800 million dollarni tashkil etishi rejalashtirilgan. Koreyaning O’zbekistonga kiritgan investitsiya hajmi 2018 yilda 289 mln.dollar bo’lib, pandemiya sharoitida 2020 yilda 204 million dollarni tashkil etdi. 2025 yilda bu ko’rsatkich 500 million dollarni tashkil etishi rejalashtirilgan.

Bugungi kunda O’zbekiston «investitsiyaviy muhit»ni yaxshilash orqali mamlakatimizning yetakchi iqtisodiy tarmoqlari va hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar va kreditlardan samarali foydalanish, shu orqali ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik tomonidan yangilash, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy

infratuzilmadagi loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib bormoqda.

Darhaqiqat, 2021- yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning 61,9 % i yoki 151,5 trln. so‘mi jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxona, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 38,1 % yoki 93,5 trln. so‘m moliyalashtirildi. Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2020- yildagi ulushiga nibatan 1,6 % punktga kamayib, 18,3 % ni yoki 44,8 trln. so‘nni tashkil etdi.

Ushbu ko’rsatkichlardan ko’rinadiki, mamlakatda qulay investitsiyaviy muhitni yaratilishi investitsiya faoliyatini rivojlantirish va amalga oshirishning muhim asoslaridan biri hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalarning jalb etilganligi mamlakatimiz iqtisodiyoti barqaror o’sishining poydevorini yaratishda, hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotidagi nomutanosibliklarni bartaraf etishda; hududlar eksport salohiyatini kuchaytirish; import o’rnini bosadigan ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Shodmonov Sh.Sh., Alimov R.H., Jo’raev T.T. "Iqtisodiyot nazariyasi", -T., "Moliya" nashriyoti, 2002, 277-6.
2. Tojiboeva D. "Iqtisodiyot nazariyasi": 2-kitob: Oliy o’kuv yurtlari talabalari uchun o’quv qo’llanma. -T. "Sharq", 2003, 79-6.
3. Турсунов Б.М. Внешнеэкономическая деятельность и привлечение иностранных инвестиций. Курс лекций. -Т.: "Узбекистан", 2004. с-45.
4. Экономическая теория: Учебник. — Изд., испр. и доп. / Под. общ,- ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрышина, Г.П.Журавлевой, .С.Тарасевича. - М.ИНФРА-М, 2005, с. 422.
5. Иностранные инвестиции. В кн.: Л.Н.Павлова. Финансы предприятий. -М., 2004. -с. 171.
6. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasining 2021 yil ma’lumotlari

7. ZS Shoxo'jayeva. Problems and solutions in the water sector of the region. - НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 2020. Стр.21-24.
8. Sagdullaevna TF Shoxo'jaeva Zebo Safoevna. Food provision of the population of the Republic of Uzbekistan in pandemic conditions: problems and solutions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2021. №2.
9. ZS Shoxo'jayeva, M Norqobilov Problems of rational use of water resources in agriculture of the Republic of Uzbekistan. - НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 2020.
10. ЗС Шохўжаева, НЖ Маманазарова. Эффективность инновационных процессов в сельскохозяйственном развитии. “Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-хуқуқий ва инновацион жиҳатлари.” Халқаро конференция.2020 й.